

Axmedov Jalol Tursunmuratovich

Jizzax politexnika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi assistenti

Otarbaeva Guljan Kobeevna

M.Auvezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti kafedra mudiri

MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI BO'YICHA TURLICH

YONDASHUVLAR

VUJUDGA KELISHI, ULARNING O'ZARO O'XSHASH VA FARQLI

JIHATLARI (QIRG'IZISTON MISOLIDA)

Annotatsiya: Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ko'p millatli Markaziy Osiyo etnosiyosati-ning muhim jihatlari haqida fikr-mulohazalar haqida so'z boradi. Mintaqada qadim zamonlardan buyon yashovchi etnik guruhlar va elatlar o'rtasida madaniy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar vujudga kela boshlagan. Markaziy Osiyoning etnik xaritasi ko'p asrlar davomida deyarli o'zgarmasdan kelmoqda. SHundan kelib chiqib aytish mumkinki, mintaqada millatlararo munosabatlarni o'rganish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, tarix, millat, elat, millatlararo munosabatlar, Avesto, titul millat, o'troq, ko'chmanchi, Kushon, turklar, arablar, mo'g'ullar, xonliklar.

Akhmedov Jalal Tursunmuratovich

Jizzakh Polytechnic Institute, assistant of the "Social Sciences" department

Otarbaeva Gulzhan Kobeevna

Head of the Department of South Kazakhstan University named after

M.Auvezov

DIFFERENT APPROACHES TO THE HISTORY OF THE PEOPLES OF

CENTRAL ASIA

EMERGENCE, THEIR SIMILARITIES AND DIFFERENCES (IN THE

CASE OF KYRGYZSTAN)

Abstract: In Central Asia, inter-ethnic relations are of particular importance. This article discusses the important aspects of multinational Central Asian ethnopolitics. Since ancient times, cultural, economic and political relations have been established between ethnic groups and peoples living in the region. The ethnic map of Central Asia has been almost unchanged for many centuries. Based on this, it can be said that the study of inter-ethnic relations in the region shows its relevance.

Key words: Central Asia, history, nation, people, inter-ethnic relations, Avesta, title nation, settler, nomad, Kushan, Turks, Arabs, Mongols, Khans.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘z milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgan ilk yillardan beri, ya’ni yaqin chorak asrdan ortiq vaqt mobaynida har bir respublikada o‘ziga xos “milliy tarix” yaratish tamoyillari o‘rtaga chiqdi. Bu tamoyilga ko‘ra, ulardan har biri mintaqada eng qadimgi xalq bo‘lib, ilk davlatchilik, ilk shaharlar, buyuk sulolalar, moddiy va ma’naviy madaniyat, mashhur tarixiy shaxslar faqatgina ulardan biriga tegishlidir. Markaziy Osiyodagi ushbu 5 xalqdan faqat bittasi eng kuchli va qadimiy xalq sifatida boshqalarni o‘ziga bo‘ysundirib kelgan va mintaqaning tubjoy aholisidir. Bunday yondashuvlar ustuvor jihatlarini shartli ravishda quyidagi jadvalda qisqacha keltirib o‘tamiz:

№	Respublika nomi	Etnik mansublikka munosabat	Qadimiyatiga munosabat	“Oltin davri”
1	Qirg‘iziston	Turkiylar, biroq “qirg‘iz” etnonimi “turk”dan qadimiyroq	Qadimgi Gyangun (Qirg‘iz) davlati (mil.avv. III asr - mingyillik boshlari) turkiy davlatlar-ning eng qadimiysi.	Qirg‘iz xoqonligi (Jan. Sibir – mil. VII - Xasr.)
2	Qozog‘iston	Turkiylar, biroq turkiy sulolalardan ko‘ra qozoq xonliklari muhim	Qang‘ va Usun (mil.avv. II – mil. III asr.) qozoq urug‘lari orasida saqlanib qolgan.	Jo‘ji ulusi va qozoq xonliklari (1456-18)
3	Tojikiston	Eroniylar, biroq sharqiy	Oriylar, miloddan oldingi	Somoniylar

		eroniy elatlarning tojiklar to'g'ridan-to'g'ri vorislari	O'rta Osiyodagi barcha o'troq davlatlar tojiklarga tegishlidir.	davlati (819-999)
4	Turkmaniston	Turkiylar, biroq turkmanlar Turkmaniston hududidagi barcha tarixiy davlatlarning vorisi	Afsonaviy O'g'uzxon va mashhur Saljuqiy sultonlar turkman bo'lgan.	Saljuqiylar (1038-1308)
5	O'zbekiston	Turkiylar, biroq qadimgi xorazmiy, sug'diy, baqtriy kabi sharqiy eroniy elatlar ham o'zbeklarning ajdodlari	O'zbek davlatchiligi deyarli uch ming yillik tarixga ega. O'zbekiston hududida yashab o'tgan barcha sulolalar o'zbek davlatchiligi bilan bog'liq.	Temuriylar (1370-1507)

Jadvalda keltirib o'tilgan bunday yondashuvlarning shakllanishida qanday omillar ta'sir qilgani va nega aynan keyingi 30 yil ichida shunday kayfiyatlar paydo bo'lgani masalasini tahlil qilishdan oldin shuni aytib o'tish kerakki, Markaziy Osiyo respublikalarining barchasida bunday qarashlarga to'laqonli qo'shilmagan, tanqidiy yondashgan va hatto qarshi chiqqan olimlar bor. Biroq, bunday kayfiyatdagi tadqiqotchilar nisbatan kamchilikni tashkil etib, ko'pchilik tarixchi va jamiyatshunos olimlar orasida yuqorida keltirib o'tilgan yondashuvlar ustuvorlik qiladi.

SHu o'rinda ushbu jadvalda qisqacha keltirib o'tilgan yondashuvlarni yanada tushunarliroq bo'lishi uchun birmuncha kengroq ko'rsatib o'tishni lozim topamiz. Ularni har bir respublika nomining alifbo tartibida olgan o'rnidan kelib chiqsak. Avvalo, Qirg'iziston olimlari orasida ustuvor bo'lgan yondashuvlarning mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tamiz. Qirg'iz tarixchilari orasida asosan quyidagicha kayfiyat hukmronlik qiladi [1]:

1) Qirg'iz xalqi nafaqat Markaziy Osiyoning, balki unga qo'shni hududlarning eng qadimiy xalqlaridan biri;

2) Qirg'izlarning ajdodlari faqatgina bugungi Qirg'iziston va unga qo'shni hududlarda emas, Janubiy Sibir va Oltoy hududlarida yashab kelganlar;

3) Qirg'izlarni Eniseybo'yi (Janubiy Sibir)dan o'rta asrlarda ko'chib kelgan deb qarash noto'g'ri, ular G'arbiy Tyanshan (bugungi Qirg'iziston) va Enisey oralig'idan qadimdan yashab kelganlar.

Ayrim jihatlarini aytmaganda qirg'iz tarixchi va ziyolilarining bunday yondashuvlari ma'lum ma'noda o'z dalil va isbotlariga ega. Birinchidan, turli tillardagi yozma ma'lumotlar, arxeologik va etnografik materiallar qirg'iz xalqi ajdodlarining miloddan oldingi so'nggi mingyillikda Eniseybo'yidan yashaganini ko'rsatib, qirg'izlarning etnik shakllanishida ishtirok etgan va xitoy yilnomalarida "gyangun" [2], "xyagas" kabi elatlar nomining mahalliy shakli "qirg'iz" bo'lgani ko'plab tadqiqotchilar tomoni e'tirof etilgan [3]. Ikkinchidan, bugungi ko'plab turkiy xalqlarda bo'lgani kabi "xun", "di", "dinlin" kabi qadimgi turkiy (aniqrog'i, prototurk) elatlar qirg'izlarning ham etnik shakllanishida u yoki bu darajada ishtirok etgan. Uchinchidan, aynan "qirg'iz" etnonim bilan tanilgan ajdodlari rivojlangan o'rta asrlar – IX – XII asrlarda hozirgi Qirg'izistonning eng g'arbiy chekkasi bo'lgan Talas vodiysida yashaganliklari arab va fors geograflari asarlarida qayd etilgan [4].

Markaziy Osiyo xalqlari tarixining qadimgi davr, ilk o'rta asrlar, rivojlangan o'rta asrlar va so'nggi o'rta asrlar kabi tadrijiy bosqichlarini o'rganishda bugungi kun jahon tarixshunosligida bo'lsin yoki mintaqaning mahalliy tarixchilari bo'lsin turlicha yondashayotganligi ko'zga tashlanadi. Bu masalada sof ilmiy yondashuv, ob'ektivlikka rioya qilish birmuncha ustuvor bo'lsa-da, joylarga qarab bir-birini rad qiluvchi yondashuvlar ham kuzatiladi. Boshqa paragraflarda ham bir necha bor to'xtalib o'tilganidek, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bo'yicha izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarni quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin: 1) YOzma manbalar va arxeologik materiallarga murojaat qilgan holda ilmiy etika, ob'ektivlik, haqqoniylikka rioya qiluvchi tadqiqotchilar; 2) Bunday manbalardan foydalanayotgan, biroq ko'proq o'zining milliy tarixini yoritishga intilayotgan izlanuvchilar; 3) Manbalardan

foydalangan, biroq ularni o'z manfaatlariga moslashtirib, tarixiy voqeliklarga biryoqlama yondashib, noxolislikka yo'l qo'yayotgan tadqiqotchilar; 4) Manbalarga deyarli murojaat qilmasdan yoki biryoqlama yondashgan holda o'z xalqining tarixini yanada "qadimiy" va "buyuk" qilib ko'rsatishga intiladigan tadqiqotchilar.

Xullas, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bo'yicha turlicha yondashuvlar vujudga kelishi, ularning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ayrim jihatlar asosida ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, mintaqadagi har bir respublikada hududga nisbatan yondashuvda turlichalik, umumiylikdan ko'ra ko'proq o'ziga xoslikka e'tibor qaratish, o'zining milliy tarixi va milliy qahramonlariga ko'proq urg'u berish, ayrim tarixiy sulolalarni "dushman" deb bilish, ayrim sulolalar tarixini bo'rttirib ko'rsatish kabi holatlar ko'zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rtveladze E.V. O nekotoryx aspektax noveyshix issledovaniy istorii Sentralnoy Azii // Sovremennye mify o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii. Izd. 2-e dop. – Toshkent: Cho'lpon, 2007. – S. 7; Kamoliddin Sh. Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar. Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo mamlakatlari) mutaxassisligi bo'yicha magistratura talabalariga mo'ljallangan darslik. Qo'lyozma huquqida. – Toshkent – 2019. – B. 53.

2. Bichurin N. YA. (Iakinf). Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. V 3-x tomax. –M. - L.: Izd. AN SSSR. – tom I. – 1950. – S. 353.

3. Suprunenko G. P. Dokumenty ob otnosheniyax Kitaya s eniseyskimi kыргызami v istochnike IX veka «Li Vey-gun xoychanipinszi» («Sobranie sochineniy Li Vey-guna perioda pravleniya Xoychan, 841—846 gg.») // Izvestiya Akademii nauk Kirgizskoy SSR, seriya Obщestvennyx nauk, T. V, Выр. 1, (Istoriya). – Frunze: Izd-vo AN Kirg. SSR, 1963. – S. 67-81.

4. Hudud ul-olam (Movarounnahr tavsifi). Fors tilidan tarjima, soʻz boshi, izohlar va joy nomlari koʻrsatkichi muallifi O. Boʻriev. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2008. – B. 7, 27, 56.

5. Axmedov, J. T., & Guljan Kobeyevna, O. (2024). History of inter-ethnic relations in Central Asia and stages of development.